“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Jazoni almashtirish institutining huquqiy mohiyati va uni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari

Akbarxon A’zamov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: azamovlaw@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada jazoni almashtirish institutining jinoyat-huquqiy tabiati, uning jazo tayinlash va jazo ijrosi institutlari bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda amaliyotda qo‘llash jarayonida yuzaga kelayotgan nazariy va huquqiy muammolar tahlil qilingan. Xususan, homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolalari mavjud ayollarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi tayinlangandan keyin, jazoni o‘tash shartlarini buzish holatlarida jazoni og‘irrog‘i bilan almashtirish masalasining huquqiy tabiati o‘rganilgan. Muallif milliy qonunchilik, sud amaliyoti hamda xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilgan holda amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga oid ilmiy takliflarni ilgari suradi.

Калит сўзлар. jazo tayinlash, ozodlikni cheklash, probatsiya, homilador ayollar, insonparvarlik prinsipi, jazo muqarrarligi

Аннотация. В данной статье анализируется уголовно-правовая природа института замены наказания, его взаимосвязь с институтами назначения и исполнения наказания, а также теоретические и практические проблемы, возникающие в процессе применения. Особое внимание уделяется вопросам замены наказания более строгим видом в случаях нарушения порядка отбывания наказания женщинами, имеющими детей в возрасте до трех лет, а также беременными женщинами. На основе сравнительного анализа национального законодательства, судебной практики и международного опыта автор выдвигает предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова. назначение наказания, ограничение свободы, пробация, беременные женщины, принцип гуманизма, неотвратимость наказания

Annotation. This article analyzes the criminal law nature of the institution of punishment replacement, its relationship with sentencing and execution of punishment, as well as theoretical and practical problems arising in law enforcement practice. Particular attention is given to the legal nature of

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

replacing punishment with a stricter sanction when pregnant women or women with children under three years of age violate the conditions of serving restriction of liberty sentences. Based on comparative analysis of national legislation, judicial practice and international experience, the author proposes recommendations aimed at improving existing legislation.

Keywords. sentencing, restriction of liberty, probation, pregnant women, principle of humanity, inevitability of punishment

Bugungi kunda jinoyat huquqining rivojlanish tendensiyalari davlatlarning jazolash siyosatini qayta ko‘rib chiqish, repressiv mexanizmlardan bosqichma-bosqich voz kechish hamda shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda tuzatishga qaratilgan muqobil institutlarni keng joriy etish bilan tavsiflanmoqda. Zamonaviy jinoyat-huquqiy siyosatda jazo nafaqat sodir etilgan qilmishga davlat javobi sifatida, balki shaxsni qayta tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish hamda yangi huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi kompleks huquqiy institut sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ayollar, voyaga yetmaganlar, homilador shaxslar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifadagi shaxslarga nisbatan jazoni alohida yondashuv asosida belgilash masalasi kunda xalqaro huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda jinoyat qonunchiligini insonparvarlashtirish, jazo choralarini liberallashtirish hamda ona va bola manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur siyosatning amaliy ifodalaridan biri sifatida Jinoyat kodeksining 50-moddasi o‘ninchi qismida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar hamda qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligi belgilangan [1]. Ushbu norma, avvalo, ona va bola manfaatlarini himoya qilish, bolalarning oilaviy muhitda voyaga yetishini ta’minlash hamda jazo siyosatining insonparvarlik yo‘nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Jinoyat huquqi nazariyasida jazo tayinlash instituti davlatning jinoyatga qarshi kurashish funksiyasining markaziy elementlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur institutni qo‘llashda sudlar, avvalo, qonuniylik, adolat, ayb uchun javobgarlik hamda insonparvarlik kabi prinsiplarga amal qilishi lozim [2]. Ayniqsa, insonparvarlik prinsipi davlat tomonidan jazolash vakolatini amalga oshirishda shaxsning ijtimoiy va oilaviy holatini hisobga olish zaruratini nazarda tutadi. Shu sababli homilador ayollar va yosh bolasi mavjud onalarga nisbatan alohida huquqiy yondashuv jinoyat huquqining umumiy nazariy asoslari bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Mazkur normaning ijtimoiy va huquqiy ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Chunki homilador ayol yoki yosh bolasi bor onani

ozodlikdan mahrum qilish nafaqat uning o‘ziga, balki voyaga yetmagan farzandining manfaatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli qonun chiqaruvchi bunday toifadagi shaxslar uchun alohida huquqiy imtiyozlarni nazarda tutgan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu norma ayrim hollarda o‘zining asl maqsadidan tashqarida talqin qilinishi natijasida jazo ijrosi tizimida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, so‘ngi vaqtlarda sudlar amaliyotida homilador yoki uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan ko‘p holatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga ozodlikni cheklash jazosi tayinlanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, ozodlikni cheklash jazosi mahkumning yashash joyini tark etishi, muayyan vaqtlarda ko‘chaga chiqishi yoki boshqa cheklovlarga rioya etishi bilan bog‘liq bo‘lgan jazo turi hisoblanadi. Ushbu jazoning samaradorligi esa eng avvalo, mahkum tomonidan sud belgilagan cheklovlarga rioya qilinishiga bog‘liqdir.

Amaliyotda esa ayrim hollarda uch yoshga to‘lmagan bolasi mavjud bo‘lgan ayollar sud tomonidan tayinlangan ozodlikni cheklash jazosining talablarini muntazam ravishda buzayotganligi kuzatilmoqda. Jumladan, ular belgilangan vaqtlarda yashash joyida bo‘lmaslik, probatsiya organlarini xabardor qilmasdan boshqa joylarga ketish, nazorat tadbirlaridan bo‘yin tovlash kabi harakatlarni bir necha marotaba takrorlamoqda. Ayrim holatlarda bunday qoidabuzarliklar o‘nlab marotaba sodir etilayotgan bo‘lsa-da, ularga nisbatan jazoni og‘irog‘i bilan almashtirish masalasini muhokama etishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 44-4-moddasiga ko‘ra, ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi va shartlarini buzgan mahkumga nisbatan probatsiya organlari tomonidan ogohlantirish tarzidagi intizomiy jazo chorasi qo‘llaniladi. Shuningdek, qonunchilikda mahkum jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan hollarda jazoning o‘talmagan qismini ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish imkoniyati ham nazarda tutilgan [3]. Mazkur mexanizm ozodlikni cheklash jazosining real ijrosini ta’minlash va mahkumlarni belgilangan tartibga rioya etishga undash maqsadida joriy etilgan.

Biroq amaliyotda probatsiya organlari tomonidan sudlarga kiritilayotgan bunday taqdimnomalar deyarli 100 foiz holatlarda qanoatlantirilmayapti. Sudlar o‘z qarorlarini Jinoyat kodeksining 50-moddasi o‘ninchi qismida homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligi belgilanganligi bilan asoslamoqda. Natijada mahkum ozodlikni cheklash jazosini muntazam ravishda buzgan, hatto uni ijro etishdan qasddan bo‘yin tovlagan bo‘lsa ham, unga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llash imkoniyati amalda mavjud bo‘lmay qolmoqda.

Bizning nazarimizda, mazkur masalaning mohiyati Jinoyat kodeksi 50-moddasi o‘ninchi qismining huquqiy tabiatini to‘g‘ri anglash bilan bog‘liqdir. Chunki ushbu norma jazo tayinlash

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

institutiga tegishli bo‘lib, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan dastlabki hukm chiqarish jarayonida qo‘llanishi lozim. Ya’ni sud jinoyat ishini ko‘rib chiqib, aybdorga jazo tayinlayotgan vaqtda homilador ayol yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayolga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlamasligi kerak. Mazkur norma aynan jazo tayinlash bosqichidagi insonparvarlik kafolati sifatida ishlab chiqilgan.

Nazariy jihatdan jazo tayinlash instituti bilan jazo ijrosi instituti bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, ular turli huquqiy mazmunga ega bo‘lgan mustaqil institutlar hisoblanadi. Jazo tayinlash bosqichida sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi hamda aybdorning shaxsiga baho beradi. Jazo ijrosi bosqichida esa asosiy e’tibor sud tomonidan tayinlangan jazoning amalda bajarilishi, mahkumning xulq-atvori va qayta tarbiyalanish holatiga qaratiladi. Jazo tayinlash va jazo ijrosi bosqichlari o‘rtasidagi mazkur tafovut jazoni keyinchalik yengilroq yoki og‘irroq jazo turi bilan almashtirish institutining huquqiy tabiatini to‘g‘ri talqin etishda muhim nazariy va metodologik ahamiyatga ega. Zero, ushbu institutning samarali qo‘llanishi aynan mazkur bosqichlarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ri anglash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sud tomonidan ozodlikni cheklash jazosi tayinlanib bo‘linganidan so‘ng, jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlaganligi sababli uni ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirish masalasi esa mutlaqo boshqa huquqiy institut hisoblanadi. Bu holatda gap yangi jinoyat uchun yangi jazo tayinlash haqida emas, balki avval tayinlangan jazoni ijro etish jarayonida mahkumning majburiyatlarini qasddan bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan huquqiy oqibat haqida bormoqda. Boshqacha aytganda, shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosiga sodir etgan jinoyati uchun emas, balki sud tomonidan belgilangan jazo shartlarini qasddan buzganligi sababli duch kelmoqda.

Mazkur masalada yana bir muhim jihat jazoning maqsadlari bilan bog‘liq. Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazoning maqsadi mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat ekanligi belgilangan. Agar mahkum sud tomonidan belgilangan cheklovlarni muntazam ravishda buzsa, probatsiya organlarining ogohlantirishlariga e’tibor bermasa va buning uchun unga nisbatan hech qanday jiddiy huquqiy oqibat yuzaga kelmasa, jazoning tarbiyaviy va profilaktik ahamiyati amalda yo‘qoladi [4].

Shuningdek huquqiy davlatda har qanday sud qarori majburiy kuchga ega bo‘lishi va uning ijrosi ta’minlanishi lozim. Aks holda fuqarolarda sud tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya qilmaslik mumkinligi haqida noto‘g‘ri tasavvur shakllanishi mumkin. Ayniqsa, ayrim mahkumlarning o‘zlari ham ularga nisbatan jazo almashtirilmasligini bilgan holda cheklovlarni muntazam ravishda buzayotganligi jazo muqarrarligi prinsipining

amaliy ahamiyatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, ushbu holat probatsiya tizimining samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Probatsiya nazoratining asosiy maqsadi mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda uning xulq-atvorini nazorat qilish va qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir [5]. Biroq nazorat choralariga bo‘ysunmaslik uchun real huquqiy oqibat mavjud bo‘lmasa, probatsiya organlarining vakolatlari ham ma’lum darajada formal tus olib qolishi mumkin.

Albatta, bu masalada insonparvarlik tamoyili va ona-bola manfaatlarini himoya qilish zarurati saqlanib qolishi lozim. Biroq insonparvarlik javobgarlikning mutlaq istisno qilinishi yoki sud qarorlarini bajarmaslik huquqini bermaydi. Huquqiy davlatda har qanday imtiyoz qonuniy maqsadlarga xizmat qilishi, biroq qonun talablarini mensimaslik uchun vositaga aylanib qolmasligi kerak.

Shu sababli amaldagi qonunchilikni takomillashtirish zarurati mavjud deb hisoblaymiz. Xususan, Jinoyat kodeksi 50-moddasi o‘ninchi qismida nazarda tutilgan cheklovlar faqat jazo tayinlash bosqichiga taalluqli ekanligi qonunchilik darajasida aniqroq ifodalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, ozodlikni cheklash jazosini o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlayotgan homilador ayollar yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarga nisbatan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan muqobil ta’sir choralarini ham ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda Jinoyat kodeksi 50-moddasi o‘ninchi qismi ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillarining yorqin ifodasi bo‘lsa-da, uning amaliyotdagi talqini ayrim hollarda jazo ijrosi tizimida huquqiy bo‘shliq yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Jazo tayinlash va jazo ijrosi institutlarining huquqiy chegaralarini aniq belgilash, jazo muqarrarligi hamda insonparvarlik tamoyillari o‘rtasida oqilona muvozanatni ta’minlash ushbu muammoning eng maqbul yechimi bo‘lib xizmat qiladi. Aks holda, ozodlikni cheklash jazosining ayrim toifadagi mahkumlarga nisbatan amalda ta’sirchanligini yo‘qotishi, bu esa jinoiy jazolarning maqsadlari va huquqiy davlat tamoyillariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur masalaga xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan yondashilganda, ko‘plab davlatlar jinoyat siyosatida homilador ayollar va yosh bolasi bor onalarga nisbatan insonparvarlik tamoyilini ustuvor deb bilishi bilan bir qatorda, jazo ijrosining muqarrarligi prinsipini ham saqlab qolishga alohida e’tibor qaratayotganini ko‘rish mumkin. Ya’ni rivojlangan huquqiy tizimlarda mazkur toifadagi shaxslarga nisbatan dastlab imtiyozli jazo siyosati qo‘llanadi. Biroq bu imtiyoz sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni buzish yoki jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlash holatlarida mutlaq daxlsizlik sifatida talqin qilinmaydi. Aksincha, insonparvarlik va javobgarlik o‘rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Masalan, Germaniya jinoyat qonunchiligida sudlar homilador ayollar yoki voyaga yetmagan farzandi mavjud shaxslarga nisbatan

qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazolarini imkon qadar qo‘llamaslikka intiladi. Shu bilan birga, agar mahkumga tayinlangan probatsiya nazorati yoki boshqa alternativ jazo choralari muntazam ravishda buzilsa, sud ushbu shaxsning oilaviy holatidan qat’i nazar, ilgari qo‘llanilgan yengilroq jazoni bekor qilish va og‘irroq jazo choralarini qo‘llash vakolatiga ega [6]. Nemis huquqiy doktrinasida bu yondashuv “Davlatning insonparvarligi qonuniy majburiyatlarni bajarish bilan shartlangan bo‘lishi kerak” degan konsepsiya bilan asoslanadi [7].

Xuddi shunga o‘xshash amaliyot Fransiya jinoyat-ijroiya tizimida ham mavjud. Fransiya qonunchiligida voyaga yetmagan farzandi mavjud bo‘lgan ayollarga nisbatan jamoat nazorati ostidagi jazolar, elektron kuzatuv vositalari yoki uy qamog‘i kabi muqobil choralar keng qo‘llaniladi. Biroq ushbu nazorat shartlari buzilgan taqdirda sud dastlab berilgan imtiyozli tartibni bekor qilish huquqiga ega. Muhim jihati shundaki, Fransiya sud amaliyotida dastlab berilgan insonparvarlik yengilligi keyinchalik sud nazoratini mensimaslik uchun asos bo‘la olmaydi [8].

Buyuk Britaniya tajribasi ham mazkur masalada alohida e’tiborga loyiqdir. Britaniya jinoyat siyosati tizimida sudlar homilador ayollar yoki yosh bolasi bor onalarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini imkon qadar oxirgi chora sifatida qo‘llaydi. Shu bilan birga sud tomonidan jamoat nazorati asosida tayinlangan yoxud ijrosi ma’lum shartlar asosida kechiktirilgan jazolar qasddan buzilgan taqdirda, mahkumning oilaviy holati jazoni og‘irlashtirishni mutlaqo istisno qilmaydi. Sud har bir holatda bolaning manfaatlarini ham, adolat va javobgarlik talablarini ham birgalikda baholaydi [9].

AQShlari federal va shtatlar amaliyotida ham probatsiya institutining samaradorligini ta’minlash maqsadida shartli jazolarni buzish holatlariga nisbatan qat’iy yondashuv mavjud. Ayrim shtatlarda voyaga yetmagan farzandi mavjud bo‘lgan ayollarga nisbatan jamiyatdan ajratmagan holda nazorat ostida o‘tash tartibidagi jazo yoxud uy sharoitida harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog‘liq jazo chorasi qo‘llaniladi. Ammo probatsiya ushbu shartlarni buzish holatlarini aniqlasa, sud dastlab tayinlangan yengilroq jazo rejimini bekor qilib, unga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni qo‘llagan holda shaxsni jazoni ijro etish muassasaga yuborishi mumkin. Bu amaliyotning asosiy maqsadi jazoning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyatini saqlab qolishdan iborat [10].

Skandinaviya davlatlari, xususan Norvegiya va Shvetsiya davlatlari tajribasida esa davlat jazolashdan ko‘ra qayta tarbiyalash siyosatiga ustuvor ahamiyat beradi. Ushbu mamlakatlarda yosh bolasi mavjud onalarga nisbatan maxsus nazorat dasturlari, psixologik kuzatuv, ijtimoiy xodimlar monitoringi hamda bosqichma-bosqich nazorat tizimi joriy etilgan. Shu sababli oddiy ogohlantirish bilan cheklanib qolmasdan, jazo shartlari buzilgan sari cheklovlar bosqichma-bosqich kuchaytiriladi [11]. Mazkur tizim

mahkumni darhol jazoni ijro etish muassasasiga yubormasdan turib ham samarali intizomiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Alohida ta’kidlash joizki, xalqaro standartlar ham ushbu masalaga muayyan mezonlar belgilab bergan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Bangkok Qoidalari – ayol mahkumlarga nisbatan muomala qilishga oid xalqaro standartlarda ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini imkon qadar cheklash tavsiya etiladi [12]. Biroq ushbu hujjatlarda ham alternativ jazolarni qo‘llash mahkum tomonidan qonuniy talablarni vijdonan bajarishi bilan uzviy bog‘liqligi qayd etiladi. Ya’ni xalqaro standartlarning o‘zi ham insonparvarlikni javobgarlikdan to‘liq ozod etish vositasi sifatida ko‘rmaydi.

Shuningdek, Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan probatsiya xizmatlari bo‘yicha tavsiyalarda probatsiya institutining samaradorligi bevosita huquqbuzarga nisbatan real nazorat mexanizmlari va sanksiyalar mavjudligiga bog‘liq ekanligi alohida ko‘rsatilgan [13]. Agar probatsiya shartlari buzilgan taqdirda huquqiy oqibat yuzaga kelmasa, butun alternativ jazolar tizimining oldini olish ta’siri pasayishi mumkinligi qayd etilgan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, aksariyat rivojlangan davlatlar homilador ayollar yoki yosh bolasi mavjud onalarga nisbatan insonparvarlik asosida imtiyozlar berar ekan, ushbu imtiyozlarni sud nazoratidan ozod qiluvchi mutlaq kafolat sifatida talqin qilmaydi. Aksincha, dastlab berilgan yengillik shaxsning qonunga itoatkor xulq-atvori bilan bog‘liq ravishda saqlanib qoladi. Mahkum ushbu ishonchni suiiste’mol qilgan hollarda esa davlatda jazo mexanizmlarini qayta kuchaytirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishda aynan mana shu yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Xususan, jazoni og‘irrog‘i bilan almashtirish institutida jazo tayinlash bosqichidagi insonparvarlik normalari bilan jazo ijrosi bosqichidagi javobgarlik mexanizmlarini aniq farqlash zarur. Shu bilan birga, ozodlikni cheklash jazosini qasddan buzayotgan homilador ayollar yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarga nisbatan bosqichli sanksiyalar tizimini joriy etish, jumladan elektron monitoring, kuchaytirilgan probatsiya nazorati, majburiy ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari yoki maxsus nazorat rejimlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zero, zamonaviy jinoyat siyosatining asosiy maqsadi faqat insonparvarlikni ta’minlash emas, balki insonparvarlikni qonuniylik, adolat va jazo muqarrarligi prinsiplari bilan uyg‘un holda amalga oshirishdan iboratdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan ushbu muvozanat saqlangan davlatlarda alternativ jazolar tizimi samarali ishlamoqda, probatsiya organlari faoliyati real natija bermoqda hamda jazoning tarbiyaviy va profilaktik vazifalari to‘laqonli amalga oshirilmoqda [14]. Shu ma’noda, jazoni almashtirish institutining huquqiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish bugungi kunda milliy jinoyat qonunchiligini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda jinoyat huquqining zamonaviy rivojlanish bosqichi davlatlardan jazolash siyosatini qayta ko‘rib chiqish, insonparvarlikni kengaytirish bilan birga javobgarlikning muqarrarligini saqlab qolishni talab qilmoqda. O‘zbekiston qonunchiligida ham jazoni almashtirish institutini takomillashtirishda xalqaro standartlar, rivojlangan davlatlar amaliyoti hamda milliy sud amaliyotida uchrayotgan kollizion holatlar kompleks tarzda tahlil qilinishi lozim. Zero, samarali jinoyat siyosati faqat jazolash yoki faqat insonparvarlikka emas, balki ushbu ikki element o‘rtasidagi barqaror huquqiy muvozanatga asoslanishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Elektron manba: https://lex.uz/docs/-111453. 2. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik 2012. – 67 b. *(Usmonaliyev, M., & Bakunov, P. Criminal Law (General Part): Textbook. 2012, p. 67.)*

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-163629# *(Criminal executive code of the republic of uzbekistan.)*

4. Jinoyat-ljroiya huquqi. / Rustamboyev, M. va boshq. O‘zbekiston Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “Niso Poligraf”; “Vorisnashriyot”.-68 b. Elektron manba: https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/273641/images/1680600812.pdf *(Criminal Executive Law / Rustamboyev, M. et al. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Niso Poligraf Publishing House; Voris Nashriyot, p. 68.)*

5. O‘zbekiston Respublikasi “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuni. Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-7050441 *(Law of the Republic of Uzbekistan “On Probation”.)*

6. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh (Strafgesetzbuch). – Berlin: C.H. Beck, 2022. Elektron manba: https://www.beck.de/?utm (Scientific and Practical Commentary on the Criminal Code of Germany.)

7. Roxin C. Germaniya jinoyat huquqi doktrinasi va zamonaviy jazolash siyosati. – Myunxen, 2021. Elektron manba: https://utoronto.scholaris.ca/server/api/core/bitstreams/f2035c10-5eac-44f3-8fc1-aeb0ac35b134/content (German Criminal Law Doctrine and Modern Penal Policy.)

8. Fransiya Respublikasi Jinoyat kodeksi va jazoni ijro etish tizimi bo‘yicha sharhlar to‘plami. – Parij: Dalloz, 2022. Elektron manba: https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/23309 (French Criminal Code and Penal Enforcement Commentary Collection.)

9. Buyuk Britaniya Jazoni belgilash kengashi ko‘rsatmalari (Sentencing Council Guidelines). – London, 2023. Elektron manba: https://sentencingcouncil.org.uk/ (United Kingdom Sentencing Council Guidelines.)

10. Amerika Qo‘shma Shtatlari Federal Probatsiya tizimi to‘g‘risida amaliy qo‘llanma. – Washington D.C., 2022. Elektron manba: https://www.uscourts.gov/about-federal-courts/probation-a

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nd-pretrial-services (Federal Probation System Practice Guide of the United States.)

11. Norvegiya va Shvetsiya jazoni ijro etish tizimida qayta ijtimoiylashtirish dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar. – Stockholm, 2023. Elektron manba: https://www.kriminalomsorgen.no/?utm (Research on Rehabilitation Programs in Norwegian and Swedish Penal Systems.)

12. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Ayol mahkumlar bilan muomala qilish va ayol huquqbuzarlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan choralar to‘g‘risidagi Bangkok qoidalari. – Nyu-York, 2010. Elektron manba: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/united-nations-rules-treatment-women-prisoners-and-non-custodial (United Nations Rules for the Treatment of Women Prisoners and Non-custodial Measures for Women Offenders – Bangkok Rules.)

13. Yevropa kengashi Vazirlar qo‘mitasining Probatsiya qoidalari bo‘yicha tavsiyasi CM/Rec(2010)1. – Strasburg, 2010. Elektron manba: https://www.coe.int/en/web/portal/ (Council of Europe Recommendation on European Probation Rules.)

14. Ashworth A. Zamonaviy jinoyat siyosati va alternativ jazolar tizimi. Oxford University Press, 2021. Elektron manba: https://global.oup.com/academic/?cc=uz&lang=en&utm

(Contemporary Criminal Policy and Alternative Sanctions System.)